

Qishloq xo'jaligi texnikalaridan qay darajada foydalanyapmiz?



Ayni paytda O'zbekistonda 77 ming 554 ta fermer xo'jaligi mavjud bo'lib, ularning o'rtacha yer maydoni 48,1 gektarni tashkil etadi. Ushbu ekin maydonlariga 261 600 ta texnika orqali xizmat ko'rsatiladi.

Qayd etish joizki, so'nggi paytlarda yurtimizda mazkur tizimni texnika va mashina-mexanizmlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilyapti. 2018-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga 33 700dan ortiq texnikalar yetkazib berilgani, ularning tannarxi 20 foizgacha pasaytirilgani fikrimiz tasdig'idir. Shuningdek, fermer va dehqon xo'jaliklariga uzoq muddatli imtiyozli kreditlar ajratilib, subsidiyalar berilayotgani, texnikalarni ta'mirlash maqsadida ustaxonaga yetkazish uchun ketgan yo'l xarajati 80 foizgacha davlat tomonidan qoplanayotgani diqqatga sazovor. Aytib o'tganimizdek, respublikamizda keyingi ikki yilda agrar soha xo'jaliklarida xalqaro standartlarga javob beruvchi zamonaviy texnikalar bilan ta'minlanganlik darajasi oshdi. Lekin, shu bilan birga, texnikalarning ishlash muddatlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 10 yildan ziyod xizmat qilgan texnikalar 65,4 foizni tashkil etayotgan bo'lsa, 44100 dona yoki 16,9 foiz qishloq xo'jalik texnikalari butunlay eskirgan. Shu bois fermer va dehqon xo'jaliklarini sifatli, zamonaviy, arzon, ishonchli, agrotexnik va ekspluatatsion ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan texnikalar bilan ta'minlash ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Bu ishlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan ekan, xo'jaliklarga yetkazilgan qishloq xo'jaligi texnikalaridan samarali, resurslaridan esa to'liq foydalanish uchun o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatish, nosozliklarni bartaraf qilish, ta'mirlash, diagnostikalash va to'g'ri saqlash kabi texnik jarayonlar qoidalariga to'liq rioya qilish talab etiladi. Binobarin, fermer, dehqon va suv xo'jaliklarida foydalaniladigan texnikalarning texnik va ishonchlilik ko'rsatkichlari (buzilmasdan ishlashi, puxtaligi, ta'mirbopligi, saqlanuvchanligi) yuqori bo'lishi texnik xizmat ko'rsatishga, ya'ni ta'mirlash, saqlash hamda diagnostikalashga moslanganligi yuqori bo'lishiga bog'liq. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, qishloq xo'jaligini zamonaviy va energiya tejamkor, foydalanish, ishlatish, ta'mirlash, saqlash hamda diagnostika qilishga moslashgan "aqlli" texnikalar bilan ta'minlashda bir qator tizimli muammolar mavjud. Xususan, joylardagi mashina-traktor parklari, ustaxonalar hamda texnik xizmat ko'rsatish maskanlarining moddiy-texnika bazasini yangilash zarur. Qishloq xo'jaligi texnikalari parkining 65 foizi ma'nan va jismonan eskirganligi bois yangilashga, ta'mirlashga muhtoj. Shuningdek, –ishlab chiqaruvchi korxonalaridagi asbob-uskuna va moslamalar eskirgan.

Keyingi yillarda respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy, o'zgarish va bunyodkorliklardan qishloq xo'jaligi ham bebahra qolayotgani yo'q. Ushbu yo'nalishda ko'plab davlat hujjatlari qabul qilinib, ijrosiga jiddiy kirishilmoqda. Jumladan, 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiya doirasidagi "Yo'l xaritasi"da tavsiya etilganidek, texnikalarni takomillashtirish, xo'jaliklarda, tuman, viloyatlarda qishloq xo'jaligi texnikalariga xizmat ko'rsatuvchi ustaxonalar, saqlash uchun maydonlar va boshqa markazlarni yaratish bo'yicha katta hajmli ishlar rejalashtirilgan hamda istiqbolli ishlanmalar yaratilmoqda.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining 2018-yil 18-yanvardagi farmoyishida, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-iyuldagi qarorida qishloq xo'jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, xo'jaliklarni texnikalar bilan ta'minlash, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, texnikalarni ta'mirlash, detal va agregatlar resursidan to'liq foydalanish, saqlash, diagnostika qilish jarayonlarida sarf bo'layotgan xarajatlarni, yonilg'i-moylash mahsulotlarini tejash kabi muammolarni shaffoflik bilan o'rganish, tahlil qilish kabi vazifalar belgilab berildi. Texnik xizmat ko'rsatish markazlarini tashkil qilish, texnikalardan foydalanish, ta'mirlash, saqlash va diagnostikalash bo'yicha zamonaviy avtoustaxonalar yaratish yuzasidan tavsiyalar hamda "Yo'l xaritalari" ishlab chiqildi. Bu borada respublika, viloyat va tumanlarda doimiy faoliyat yurituvchi komissiya hamda guruhlar tuzildi. Pirovardida shu narsa ma'lum bo'ldiki, 2018-yilda fermer xo'jaliklari va paxta-to'qimachilik klasterlariga 33,7 mingdan ortiq qishloq xo'jaligi, meliorativ texnikalar yetkazib berilgan. Bu oldingi yildagiga nisbatan 1,5 barobar ko'p va respublikamiz bo'yicha 12 foizdan ortiq texnikalar yangilandi, degani. Shu bilan birga, mavjud texnikalardan unumli foydalanilmayotgan yoki buning imkoni bo'lmagan holatlar ham yo'q emas. Masalan, Qashqadaryo viloyatining Koson, Nishon, Yakkabog' va Kasbi tumanlaridagi jami 149 ta texnikaning 5 tasi nosoz, 3 tasi yaroqsizligi ayon bo'ldi.

39 ta ekskavatorning ham 31 tasi ishlayapti, xolos. Ta'mirtalab texnikalarni ishga yaroqli qilish uchun ta'mirlash ustaxonalari kerak. Namangan, Andijon, Farg'ona va boshqa viloyatlardagi mashina-tractor parklari hamda davlat unitar korxonalar ham xuddi shunday ustaxonalarga ehtiyoj sezmoqda.

Shu o'rinda yana bir mulohaza. Gap shundaki, keyingi yillarda soha vakillari ko'plab qishloq xo'jaligi texnikalari, traktorlar, melioratsiya mashinalari va suv nasoslari bilan ta'minlanayapti. Biroq ularning konstruksiyasi murakkab, ya'ni transmissiyani harakatga keltiruvchi gidrotizim, boshqarish gidrokuchaytirgichlari, turli datchiklardan tashkil topgan elektron o'lchov asboblari va boshqa elementlar mavjud. Mexanizatorlar uchun yangilik bo'lgan bunday murakkablik ma'lum darajada texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va saqlashga qo'yish texnologik ishlari hajmi ko'payishiga olib kelmoqda.

Yurtimiz qishloq xo'jaligi uchun 70 dan ortiq korxonalariga ega "O'zagrotexsanoatxolding" aksiyadorlik jamiyati asosiy texnika va mexanizmlar yetkazib beruvchi hisoblanadi. Ya'ni zarur mashina, agregat va mexanizmlarning 80 turdan ortig'i shu yerda tayyorlanadi. Shunday ekan, jamiyatdajahon andozalariga mos konstruksiyalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda mashinalarning ishonchlilik va texnik ko'rsatkichlarini modernizatsiyalash, agrotexnik parametr va ko'rsatkichlarini takomillashtirish, agrotexnik parametrlarini datchik va kombinatsiyalashgan tizim yordamida nazorat (monitoring) qilish mumkin bo'lgan mashinalar yaratish yana-da yaxshi. Bu — zamon talabi.

Texnikalar dala sharoitida nosozliklarni bartaraf qilishga, ta'mirlash paytidagi texnologik jarayonlarga, saqlashga qo'yish, olish va saqlash paytida texnik xizmat ko'rsatishga, diagnostika qilishga moslashgan bo'lishi kerak. Shuningdek, mashina va mexanizmlarning ishonchlilik ko'rsatkichlari ham yaxshilanishi zarur.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2030-yilga borib respublikamiz dehqonlari uchun bir yilda 32 700 donadan ortiq mashinalar ishlab chiqariladi. Bundan ko'rinadiki, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, saqlash ishlari hajmi ham keskin oshadi. Ammo bizda ixtisoslashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bazalari, ustaxonalar, sexlar, bo'limlar, saqlash uchun maydon yoki bostirmalar, yonilg'i-moylash bo'limlari va ko'chma avtoustaxonalar deyarli yo'q. Borlari ham boshqa ishlarga moslashtirilgan. Mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlovchi "Rejali-ogohlantiruvchi" kompleks boshqaruv tizimi buzilgan.

Demoqchi bo'lganimiz, texnikalardan samarali foydalanishni ko'zlayotgan ekanmiz, bu kabi masalalar hal

etilishiga ham e'tibor qaratishimiz zarur. Respublikamiz qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida agrar sohani isloh qilish, unga bozor mexanizmlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish yuzasidan ko'plab vazifalar belgilangani bu yumushlar davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotganidan dalolatdir. Texnikalardan —samarali va oqilona foydalanish esa agrar soha madaniyatini oshirishga ham munosib hissa qo'shadi.

Shukurullo YO'LDOSHEV,

O'zbekiston Respublikasida

xizmat ko'rsatgan fan arbobi,

akademik,

TIQXMMI professori.

Manba